



Sirdaryo viloyati
Statistika boshqarmasi

AXBOROTNOMA
*Sirdaryo viloyatining
ijtimoiy-iqtisodiy holati*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MILLIY STATISTIKA QO‘MITASI**

**SIRDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**SIRDARYO VILOYATINING
STATISTIK AXBOROTNOMASI**

**2025-yil
YANVAR-IYUN**

Guliston – 2025



SO‘Z BOSHI

Sirdaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati – Viloyatning ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar holatini kompleks tavsiflovchi Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasining choraklik nashri hisoblanadi. Statistik axborotnomada 2025-yilning yanvar-iyun oylari yakunlari bo‘yicha Sirdaryo viloyatining asosiy statistik ko‘rsatkichlari chop etilgan. Nashr 14 ta tematik qismlardan tashkil topgan bo‘lib, u asosiy makroiqtisodiy indikatorlarni, shuningdek, yalpi hududiy mahsulotni ishlab chiqarish, korxonalar va tashkilotlar, jumladan kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyati, investitsion faollik, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, sanoat, qurilish, bozor xizmatlarining rivojlanish dinamikasi to‘g‘risidagi statistika ma‘lumotlarini o‘z ichiga oladi. Axborotnomada sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi, transport va aloqa, ichki va tashqi savdo, ulgurji va chakana savdo, mehnat bozori, va demografik holat to‘g‘risidagi tahliliy ma‘lumotlar keng yoritilgan. Tezkor hisoblar asosidagi ma‘lumotlarga kelgusida aniqlik kiritilishi mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlar keltirilmoqda.